INGLIZ OMMAVIY NUTQINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASIDA AI VA INSON TARJIMONI: LINGVOPRAGMATIK QIYOSIY TAHLIL

Ro‘zimbayev Umarjon Xajiboy o‘g‘li
E-mail: ruzimbayevumarjon@gamil.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23160128

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz tilidagi ommaviy nutqning o‘zbek tiliga tarjimasida sun’iy intellekt va inson tomonidan amalga oshiriladigan tarjima yondashuvlari lingvopragmatik nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjimaning leksik-semantik muvofiqligi bilan bir qatorda kommunikativ niyat, implikatura, presuppozitsiya, deyksis, metaforik ifodalar, kontekstual ma’no hamda kommunikativ ta’sirning tarjimada qayta yaratilishi asosiy tahlil mezonlari sifatida belgilanadi. Empirik material sifatida ingliz tilidagi autentik ommaviy nutqlardan olingan fragmentlardan foydalanildi. Ularning sun’iy intellekt yordamida yaratilgan o‘zbekcha variantlari kontekst va lingvopragmatik omillar asosida shakllantirilgan nazorat tarjimalari bilan qiyoslandi. Tahlil natijalari sun’iy intellekt semantik jihatdan maqbul tarjima yaratishi mumkinligini, biroq ayrim metaforik, idiomatik va kontekstga bog‘liq birliklarda pragmatik moslashtirish zarurati yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijasida AI yordamidagi ommaviy nutq tarjimasini semantik aniqlik, pragmatik adekvatlik, kontekstual muvofiqlik va kommunikativ ta’sir asosida baholashga mo‘ljallangan to‘rt komponentli konseptual model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ommaviy nutq, tarjima, ketma-ket tarjima, lingvopragmatika, pragmatik adekvatlik, implikatura, presuppozitsiya, deyksis, metafora, kontekst, tarjima sifati.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ПЕРЕВОДЧИК-ЧЕЛОВЕК ПРИ ПЕРЕВОДЕ АНГЛИЙСКОЙ ПУБЛИЧНОЙ РЕЧИ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В статье проводится сопоставительный лингвопрагматический анализ искусственного интеллекта и человеческого подхода к переводу английской публичной речи на узбекский язык. Наряду с лексико-семантическим соответствием в качестве основных критериев анализа рассматриваются передача коммуникативного намерения, импликатуры, пресуппозиции, дейксиса, метафорических выражений, контекстуального значения и коммуникативного воздействия. Эмпирический материал исследования составляют фрагменты аутентичных англоязычных публичных выступлений. Узбекские варианты, полученные с помощью искусственного интеллекта, сопоставляются с контрольными переводами, сформированными с учетом контекста и лингвопрагматических факторов. Результаты анализа показывают, что искусственный интеллект способен создавать семантически приемлемые варианты перевода, однако при передаче некоторых метафорических, идиоматических и контекстуально обусловленных единиц возникает необходимость прагматической адаптации. В результате исследования предлагается четырехкомпонентная концептуальная модель оценки перевода публичной речи с использованием искусственного интеллекта, включающая семантическую точность, прагматическую адекватность, контекстуальное соответствие и коммуникативное воздействие.

Ключевые слова: искусственный интеллект, публичная речь, перевод, последовательный перевод, лингвопрагматика, прагматическая адекватность, импликатура, пресуппозиция, дейксис, метафора, контекст, качество перевода.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND HUMAN TRANSLATION OF ENGLISH PUBLIC SPEECH INTO UZBEK: A COMPARATIVE LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS

ABSTRACT

This article presents a comparative linguopragmatic analysis of artificial intelligence and human approaches to translating English public speech into Uzbek. In addition to lexical and semantic correspondence, the study focuses on the reproduction of communicative intention, implicature, presupposition, deixis, metaphorical expressions, contextual meaning, and communicative effect. The empirical material consists of selected fragments from authentic English-language public speeches. Uzbek translations generated with the assistance of artificial intelligence are compared with reference translations formulated with particular attention to contextual and linguopragmatic factors. The analysis indicates that artificial intelligence can produce semantically acceptable translations; however, pragmatic adaptation may still be required when translating certain metaphorical, idiomatic, and context-dependent units. Based on the findings, the study proposes a four-component conceptual model for evaluating AI-assisted public speech translation according to semantic accuracy, pragmatic adequacy, contextual correspondence, and communicative effect.

Keywords: artificial intelligence, public speech, translation, consecutive interpreting, linguopragmatics, pragmatic adequacy, implicature, presupposition, deixis, metaphor, context, translation quality.

KIRISH

XXI asrda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson faoliyatining ko‘plab sohalari qatori til va tarjima bilan bog‘liq jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Neyron mashina tarjimasi, avtomatik nutqni tanish tizimlari va katta til modellarining rivojlanishi natijasida tarjima jarayonining ayrim bosqichlarini avtomatlashtirish, katta hajmdagi lingvistik ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash hamda kontekstga mos tarjima variantlarini yaratish imkoniyatlari kengaydi.

Biroq tarjima bir tildagi leksik va grammatik birliklarni boshqa til birliklari bilan mexanik ravishda almashtirishdan iborat emas. Tarjima jarayonida manba nutqning semantik mazmuni bilan bir qatorda so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, nutq vaziyati, auditoriya, ijtimoiy-madaniy kontekst hamda nutqning pragmatik funksiyasini hisobga olish talab qilinadi.

Bu muammo ommaviy nutq tarjimasida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy nutqda so‘zlovchi auditoriyaga muayyan axborotni yetkazish bilan cheklanmaydi. U auditoriyani ishontirish, muayyan g‘oya atrofida birlashtirish, hissiy munosabatni shakllantirish, motivatsiya berish yoki muayyan harakatga undash kabi kommunikativ maqsadlarni ham ko‘zlashi mumkin. Bunda metafora, takror, parallelizm, ritorik savol, implikatura, presuppozitsiya, deyktik birliklar va emotsional-ekspressiv vositalar muhim pragmatik vazifa bajaradi.

Sun’iy intellekt tizimlari tomonidan yaratiladigan tarjimalarda grammatik va semantik aniqlikning yuqori bo‘lishi nutqning pragmatik funksiyasi ham to‘liq qayta yaratilganligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Shu sababli AI vositasidagi tarjimani inson tomonidan amalga oshiriladigan kontekstual tarjima bilan qiyosiy o‘rganish zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur tadqiqotning **maqsadi** ingliz ommaviy nutqining o‘zbek tiliga tarjimasida sun’iy intellekt va inson yondashuvlarini lingvopragmatik jihatdan qiyoslash hamda AI yordamidagi tarjima sifatini baholash uchun kompleks mezonlarni taklif qilishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

ingliz ommaviy nutqining asosiy lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash;

sun’iy intellekt va inson tarjimasi o‘rtasidagi lingvopragmatik farqlarni aniqlash uchun mezonlarni belgilash;

metafora, idiomatik birlik, implikatura, presuppozitsiya va deyksisning tarjimada qayta ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilish;

semantik aniqlik va pragmatik adekvatlik o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatish;

AI yordamidagi ommaviy nutq tarjimasini kompleks baholash modelini taklif qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz tilidagi autentik ommaviy nutqlar va ularning o‘zbekcha tarjima variantlari belgilandi. Tadqiqot predmetini esa mazkur tarjimalarda lingvopragmatik ma’no va kommunikativ funksiyaning qayta ifodalanish xususiyatlari tashkil qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tarjima ekvivalentligi va tarjima sifatini aniqlash masalasi tarjimashunoslikning markaziy nazariy muammolaridan biri hisoblanadi. Tarjima nazariyasining rivojlanishi davomida ekvivalentlik tushunchasi formal muvofiqlikdan kommunikativ va pragmatik muvofiqlikkacha bo‘lgan turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan.

E. Nida va C. Taber tarjimada formal ekvivalentlik bilan bir qatorda qabul qiluvchiga ko‘rsatiladigan ta’sir masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Ularning dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi tarjimani faqat til birliklari o‘rtasidagi formal muvofiqlik emas, balki kommunikativ jarayon sifatida o‘rganishga nazariy zamin yaratdi [1].

M. Baker tarjimada ekvivalentlikni so‘z, grammatik birlik, matn va pragmatik darajalarda ko‘rib chiqadi. Tadqiqotchining pragmatik ekvivalentlikka oid qarashlarida implikatura, presuppozitsiya va kontekstning tarjimadagi o‘rni alohida ahamiyatga ega [2]. Bu ommaviy nutq tarjimasida muhimdir, chunki so‘zlovchi ko‘zlagan ma’no har doim ham gapning yuzaki semantik tuzilishida bevosita ifodalanmaydi.

H. P. Grice tomonidan ilgari surilgan implikatura nazariyasi lingvopragmatik tarjima tahlilining muhim nazariy asoslaridan biridir. Grice kommunikatsiyada so‘zlovchi nazarda tutgan ma’no bilan gapning bevosita semantik mazmuni o‘rtasida farq mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [3]. Bunday farq tarjimonda kontekstual interpretatsiya zaruratini yuzaga keltiradi.

J. House tarjima sifatini baholashda matnni kommunikativ vaziyat va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Uning tarjima sifatini baholash modeli lingvistik vositalar bilan matnning kommunikativ funksiyasi o‘rtasidagi munosabatni aniqlash imkonini beradi [4].

Zamonaviy tarjimashunoslikda sun’iy intellekt va katta til modellarining rivojlanishi ushbu an’anaviy muammolarga yangi tadqiqot yo‘nalishini olib kirdi. Katta til modellari keng kontekstni qayta ishlash va tabiiy tilga yaqin tarjima variantlarini yaratish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, pragmatik kompetensiyani avtomatik ravishda baholash murakkabligicha qolmoqda.

B. Ma va hammualliflarning katta til modellarida pragmatik kompetensiyaga bag‘ishlangan tadqiqotida implikatura, referensiya, kontekst va boshqa pragmatik hodisalarni baholash uchun turli metodologik yondashuvlar mavjudligi hamda mazkur sohada yagona mukammal baholash tizimi shakllanmaganligi ko‘rsatiladi [5].

M. Sperber va hammualliflar mashina tarjimasidan mashina interpretingiga o‘tish masalasini inson tarjimasi tajribasi bilan bog‘lab o‘rganib, real og‘zaki kommunikatsiyada kontekst, moslashuvchanlik va kommunikativ vaziyatning muhimligini ta’kidlaydilar [6].

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar AI tarjimasini faqat grammatik to‘g‘rilik yoki leksik ekvivalentlik asosida baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ommaviy nutq tarjimasida semantik mazmun bilan bir qatorda pragmatik ma’no va kommunikativ ta’sirning qayta yaratilishini ham tahlil qilish zarur.

METODOLOGIYA

Tadqiqot qiyosiy-lingvopragmatik paradigma asosida amalga oshirildi. Empirik material sifatida ingliz tilidagi autentik ommaviy nutqlardan tanlangan fragmentlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari qatoriga Steve Jobsning 2005-yilda Stanford universitetida so‘zlagan bitiruv nutqi, Malala Yousafzaining ta’limga bag‘ishlangan ommaviy nutqi hamda Martin Luther King Jr.ning “I Have a Dream” nutqidan lingvopragmatik jihatdan xarakterli fragmentlar kiritildi.

Material tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi:

— nutqning real ommaviy auditoriyaga yo‘naltirilganligi;
— original nutqning ishonchli manbada mavjudligi;
— fragmentda pragmatik yoki stilistik yuklamaga ega birlikning mavjudligi;
— original kontekstni aniqlash imkoniyati;
— o‘zbek tiliga tarjimada lingvopragmatik moslashtirish ehtimolining mavjudligi.

Har bir birlik uch komponentli model asosida tahlil qilindi:

ST (Source Text) — ingliz tilidagi original birlik;

AIT (AI Translation) — sun’iy intellekt yordamida hosil qilingan o‘zbekcha tarjima;

RT (Researcher Translation) — tadqiqotchi tomonidan original kontekst, o‘zbek tilining uslubiy me’yorlari va lingvopragmatik omillarni hisobga olgan holda shakllantirilgan nazorat tarjimasi.

RT alohida professional tarjimonlar guruhi bilan o‘tkazilgan tajriba natijasi sifatida emas, qiyosiy tahlil uchun tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan referens tarjima sifatida qo‘llanildi.

Tarjima variantlari quyidagi to‘rtta asosiy mezon asosida tahlil qilindi:

Semantik aniqlik (SA) — original nutqdagi asosiy mazmunning tarjimada saqlanish darajasi;

Pragmatik adekvatlik (PA) — so‘zlovchining kommunikativ niyati va pragmatik ma’nosining tarjimada qayta yaratilishi;

Kontekstual muvofiqlik (KM) — tarjima variantining konkret kommunikativ vaziyatga mosligi;

Kommunikativ ta’sir (KT) — original nutqning auditoriyaga yo‘naltirilgan funksiyasi va ekspressiv kuchining tarjimada saqlanishi.

Bundan tashqari, nutq aktlari, implikatura, presuppozitsiya, deyksis, metafora, idiomatik birliklar va emotsional-ekspressiv vositalar lingvopragmatik kategoriyalar sifatida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot materiallarining qiyosiy tahlili AI yordamidagi tarjima bilan kontekstual-referens tarjima o‘rtasidagi farq har doim grammatik yoki semantik xato shaklida yuzaga kelmasligini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda asosiy farq pragmatik adekvatlik, stilistik tabiiylik va kommunikativ ta’sir darajasida namoyon bo‘ladi.

Metaforik va kontekstual ma’noning tarjimasi

Steve Jobsning Stanford universitetidagi mashhur nutqida vaqt va inson hayotining chegaralanganligi muhim pragmatik konsept sifatida namoyon bo‘ladi:

ST: Your time is limited.

AIT: Sizning vaqtingiz cheklangan.

RT: Sizga berilgan vaqt chegaralangan.

AIT varianti original gapning semantik strukturasini aniq saqlaydi. Biroq RT variantidagi sizga berilgan vaqt birikmasi mazkur fikrni inson umrining cheklanganligi haqidagi kengroq kontekst bilan bog‘laydi. Shunday qilib, birinchi variant semantik jihatdan adekvat bo‘lsa, ikkinchi variantda kontekstual-pragmatik interpretatsiya kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Jobs nutqidagi yana bir metaforik konstruksiya boshqalarning fikri bilan shaxsning “ichki ovozi” o‘rtasidagi qarama-qarshilikka asoslanadi.

AIT: Boshqalarning fikrlari shovqini ichki ovozingizni bosib ketishiga yo‘l qo‘ymang.

RT: Boshqalarning fikri o‘z qalbingizdagi ovozni eshitishingizga xalaqit bermasin.

AIT original metaforaning formal strukturasini nisbatan to‘liq saqlaydi. RT esa metaforani o‘zbek tilida kommunikativ jihatdan tabiiyroq shaklda qayta ifodalaydi. Mazkur holat formal metaforik muvofiqlik bilan pragmatik tabiiylik har doim bir xil natija bermasligini ko‘rsatadi.

Metafora va direktiv nutq aktining tarjimasi

Malala Yousafzaining ta’lim haqidagi ommaviy nutqida kitob va qalam bilim hamda ta’lim orqali ijtimoiy o‘zgarish qilish imkoniyatining metaforik belgisi sifatida ishlatiladi.

ST: Let us pick up our books and our pens. They are our most powerful weapons.

AIT: Kitoblarimiz va qalamlarimizni olaylik. Ular bizning eng kuchli qurollarimizdir.

RT: Kitob va qalamlarimizni qo‘lga olaylik — bizning eng qudratli qurolimiz ana shulardir.

AIT varianti original mazmunni semantik jihatdan aniq ifodalaydi. RT variantidagi qo‘lga olaylik hamda ana shulardir birliklari esa o‘zbek tilida chaqiriq xarakterini kuchaytiradi. Bu yerda asosiy farq mazmunning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tarjima qilinishida emas, balki direktiv nutq aktining illokutiv kuchini qayta yaratish darajasida kuzatiladi.

Malala nutqida parallelizmga asoslangan yana bir mashhur konstruksiya mavjud:

ST: One child, one teacher, one book and one pen can change the world.

AIT: Bir bola, bir o‘qituvchi, bir kitob va bir qalam dunyoni o‘zgartira oladi.

RT: Bir bola, bir ustoz, bir kitob va bir qalam — dunyoni o‘zgartirishga qodir.

Ushbu holatda AIT ham, RT ham originalning parallel sintaktik strukturasini saqlaydi. Demak, AI tarjimasida pragmatik yoki ritorik birliklar doimo yo‘qoladi degan umumiy xulosaga kelish ilmiy jihatdan asosli emas. Strukturasi aniq va kontekstual ma’nosi nisbatan ochiq birliklarda AI ham semantik va ritorik xususiyatlarni muvaffaqiyatli saqlashi mumkin.

Konseptual metaforaning tarjimasi

Martin Luther King Jr.ning “I Have a Dream” nutqida umidsizlik va umid tushunchalari qarama-qarshi metaforik obrazlar yordamida ifodalanadi.

Original nutqda mountain of despair va stone of hope konseptual metaforalari qo‘llanadi.

AIT: Umidsizlik tog‘idan umid toshini kesib olish.

RT: Umidsizlik tog‘i bag‘ridan umid toshini bunyod etish.

AIT manba tilidagi metaforik konstruksiyaning formal elementlarini saqlashga intiladi. RTda esa tog‘ bag‘ridan kabi o‘zbek tilidagi obrazli ifoda yordamida metaforaning retseptiv va estetik ta’sirini kuchaytirishga harakat qilinadi.

Mazkur misol metaforani tarjima qilishda semantik muvofiqlik bilan auditoriyada yuzaga keladigan kommunikativ ta’sirni alohida mezonlar sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalarning lingvopragmatik umumlashtirilishi

O‘tkazilgan sifat tahlili asosida AI yordamidagi ommaviy nutq tarjimasida uchta asosiy holat ajratildi.

Birinchidan, AI originalning semantik mazmunini aniq saqlashi mumkin, biroq tarjima maqsad tilida formal yoki literalroq shaklda namoyon bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, strukturasi va kommunikativ funksiyasi ochiq ifodalangan birliklarda AI semantik mazmun bilan bir qatorda ritorik yoki pragmatik funksiyani ham saqlashi mumkin.

Uchinchidan, metafora, idioma va kontekstga yuqori darajada bog‘liq birliklarda originalning semantik mazmuni saqlangan holda kommunikativ yoki ekspressiv ta’sirda siljish kuzatilishi mumkin.

Mazkur natijalar asosida AI yordamidagi ommaviy nutq tarjimasini baholash uchun quyidagi konseptual model taklif etiladi:

TQ = SA + PA + KM + KT

bunda:

TQ (Translation Quality) — tarjima sifati;

SA (Semantic Accuracy) — semantik aniqlik;

PA (Pragmatic Adequacy) — pragmatik adekvatlik;

KM (Contextual Correspondence) — kontekstual muvofiqlik;

KT (Communicative Effect) — kommunikativ ta’sir.

Mazkur formula matematik hisoblash formulasi sifatida emas, balki tarjimani to‘rtta o‘zaro bog‘liq lingvopragmatik parametr asosida tizimli tahlil qilishga xizmat qiluvchi **konseptual baholash modeli** sifatida taklif etiladi.

Tahlil natijalari AI tarjimasidagi nomuvofiqliklarni faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” dixotomiyasi asosida tasniflash yetarli emasligini ko‘rsatadi. AI tarjimasi semantik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi bilan birga, pragmatik siljish, kontekstual nomuvofiqlik yoki kommunikativ ta’sirning o‘zgarishini namoyon qilishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, AI yordamidagi ommaviy nutq tarjimasida aniqlanadigan lingvopragmatik nomuvofiqliklarni quyidagi kategoriyalar bo‘yicha tasniflash taklif etiladi:

semantik nomuvofiqlik — original mazmunning o‘zgarishi yoki yo‘qolishi;

pragmatik siljish — kommunikativ niyat yoki yashirin ma’noning o‘zgarishi;

kontekstual nomuvofiqlik — tarjimaning kommunikativ vaziyatga yetarlicha mos kelmasligi;

kommunikativ-ekspressiv siljish — originalning auditoriyaga ko‘rsatadigan ritorik yoki emotsional ta’sirining o‘zgarishi.

Taklif etilgan tasnif ingliz-o‘zbek ommaviy nutq tarjimasida AI tizimlari faoliyatini yanada katta korpus asosida o‘rganish uchun metodologik asos sifatida qo‘llanishi mumkin.

XULOSA

Ingliz ommaviy nutqining o‘zbek tiliga tarjimasi semantik, pragmatik, kontekstual va kommunikativ omillarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan murakkab jarayon hisoblanadi. Ommaviy nutq tarjimasida so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini to‘g‘ri ifodalash bilan bir qatorda so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, nutqning pragmatik funksiyasi va auditoriyaga ko‘rsatishi ko‘zda tutilgan ta’sirni saqlash ham muhimdir.

O‘tkazilgan qiyosiy-lingvopragmatik tahlil sun’iy intellekt yordamida yaratilgan tarjimalar ayrim hollarda original nutqning semantik mazmunini aniq saqlashi va pragmatik jihatdan maqbul variant yaratishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, metaforik, idiomatik va kontekstga kuchli bog‘liq birliklarda semantik aniqlik saqlangan holda pragmatik yoki kommunikativ siljish yuzaga kelishi mumkin.

Tadqiqot natijasida AI tarjimasini faqat grammatik va leksik ekvivalentlik asosida baholash yetarli emasligi asoslandi. Shu munosabat bilan AI yordamidagi ommaviy nutq tarjimasini **semantik aniqlik, pragmatik adekvatlik, kontekstual muvofiqlik va kommunikativ ta’sir** kabi to‘rtta o‘zaro bog‘liq mezon asosida baholash modeli taklif etildi.

Shuningdek, AI tarjimasida kuzatiladigan nomuvofiqliklarni **semantik nomuvofiqlik, pragmatik siljish, kontekstual nomuvofiqlik va kommunikativ-ekspressiv siljish** kategoriyalari asosida tasniflash taklif qilindi. Mazkur tasnif tadqiqotning nazariy va metodologik natijalaridan biri sifatida ingliz-o‘zbek ommaviy nutq tarjimasining keyingi korpus tadqiqotlarida qo‘llanishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, taklif etilgan lingvopragmatik mezonlardan AI yordamidagi tarjimalarni tahlil qilish, tarjimonlarni tayyorlash, ketma-ket tarjima mashg‘ulotlarini tashkil qilish va AI tomonidan yaratilgan tarjimalarni tahrirlash jarayonlarida foydalanish mumkin.

Kelgusida tadqiqot korpusini kengaytirish, turli janrdagi ommaviy nutqlarni qamrab olish, AI tizimlarining natijalarini professional ketma-ket tarjimonlarning real tarjimalari bilan eksperimental ravishda qiyoslash hamda lingvopragmatik nomuvofiqliklarning chastotasini miqdoriy jihatdan aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, sun’iy intellekt va inson tarjimasini bir-biriga mutlaq qarama-qarshi qo‘yishdan ko‘ra, ularning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini aniq mezonlar asosida o‘rganish ingliz-o‘zbek tarjimashunosligida istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nida, E. A., Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1982.
2. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. London: Routledge, 2018.
3. Grice, H. P. “Logic and Conversation.” In: Cole, P., Morgan, J. L. (eds.). Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. New York: Academic Press, 1975. P. 41–58.
4. House, J. Translation Quality Assessment: Past and Present. London/New York: Routledge, 2015.
5. Ma, B., Li, Y., Zhou, W., Gong, Z., Liu, Y. J., Jasinskaja, K., Friedrich, A., Hirschberg, J., Kreuter, F., Plank, B. “Pragmatics in the Era of Large Language Models: A Survey on Datasets, Evaluation, Opportunities and Challenges.” **Proceedings of the 63rd Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics.** 2025. P. 8679–8696. DOI: 10.18653/v1/2025.acl-long.425.
6. Sperber, M., de Seyssel, M., Bao, J., Paulik, M. “Toward Machine Interpreting: Lessons from Human Interpreting Studies.” Proceedings of the 2025 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing. Association for Computational Linguistics, 2025. P. 23338–23353. DOI: 10.18653/v1/2025.emnlp-main.1191.
7. Munday, J., Ramos Pinto, S., Blakesley, J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. 5th ed. London/New York: Routledge, 2022.
8. Koehn, P. Neural Machine Translation. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
9. Wu, S., Yang, S., Chen, Z., Su, Q. “Rethinking Pragmatics in Large Language Models: Towards Open-Ended Evaluation and Preference Tuning.” Proceedings of the 2024 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing. Association for Computational Linguistics, 2024. P. 22583–22599. DOI: 10.18653/v1/2024.emnlp-main.1258.

10. Jobs, S. “You’ve Got to Find What You Love.” Stanford University Commencement Address. Stanford University, 12 June 2005.
11. Yousafzai, M. Speech at the United Nations Youth Assembly. United Nations, 12 July 2013.
12. King, M. L., Jr. “I Have a Dream.” Address at the March on Washington for Jobs and Freedom. Washington, D.C., 28 August 1963.